**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.08.05
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MUXAMMEDOVA OZODA AXTAMOVNA

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TIBBIYOT YO‘NALISHI TALABALARIGA KLINIK TERMINLARNI O‘RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

**13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(lotin tili)**

**PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

UO‘K: 378.091.3:63:811.111

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of the dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Muxammedova Ozoda Axtamovna
Integrativ yondashuv asosida tibbiyot yo‘nalishi talabalariga klinik terminlarni o‘rgatish metodikasini takomillashtirish.....3

Muxammedova Ozoda Axtamovna
Совершенствование методики обучения студентов-медиков клинической терминологии на основе интегративного подхода.....27

Muxammedova Ozoda Axtamovna
Improving the methodology of teaching medical students clinical terminology based on an integrative approach.....53

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....61

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.08.05
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MUXAMMEDOVA OZODA AXTAMOVNA

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TIBBIYOT YO‘NALISHI TALABALARIGA KLINIK TERMINLARNI O‘RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

**13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(lotin tili)**

**PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro-2026

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.1.PhD/Ped12110 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portali – www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan

Ilmiy rahbar:	**Xamidova Muborak Hafizovna** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Negmatova Lola Hamidovna** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Buxoro davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Ped.08.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 12-noyabr soat 09.00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (0365) 221-29-14; faks: (0365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (D/1038 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14)

Dissertatsiya avtoreferati 2026- yil 31-oktyabr kuni tarqatildi.

(2026 – yil 30-oktyabrdagi 26-raqamli reyestr bayonnomasi).

N.B. Ataboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Y.B. Ro‘ziyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Sh.Sh. Olimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta’lim tizimida oliy ta’limning rivoji ijtimoiy taraqqiyot, madaniyatlararo muloqot hamda inson kapitalini shakllantirishning muhim omili sifatida qaralmoqda. Shu nuqtayi nazardan, tibbiyot yo‘nalishi talabalariga klinik terminlarni o‘rgatish ko‘nikmalariga bo‘lgan e’tibor tobora ortib bormoqda. Bu yo‘nalish XXI asr uchun oliy ta’lim bo‘yicha Jahon deklaratsiyasida ilgari surilgan g’oyalar bilan hamohang bo‘lib, unda tibbiyot oliy ta’lim muassasalarining ijtimoiy vazifasi va ta’lim mazmuni hamda texnologiyalarini yangilash zarurati alohida ta’kidlanadi. Zamonaviy ta’lim siyosati va kommunikativ natijalarni baholash amaliyoti tilni darajaviy egallash mezonlari hamda tibbiyot yo‘nalishi talabalariga klinik terminlarni o‘rgatishda umumiy yondashuvlarga tayanadi. Xususan, til o‘qitishning yangilangan deskriptorlari, integrativ muhitda o‘zaro muloqot va mediatsiya jarayonlarini inobatga olgan holda integrativ yondashuv asosida tibbiyot yo‘nalishi talabalariga klinik terminlarni o‘rgatishga qo‘yiladigan talablarni aniq belgilab beradi.

Dunyoda integrativ yondashuv asosida tibbiyot yo‘nalishi talabalariga klinik terminlarni o‘rgatish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayon nafaqat til birliklarini o‘zlashtirish, talaffuz ko‘nikmalarini takomillashtirish, balki talabalarning tafakkur doirasini kengaytirish, ularning bilish faoliyatini faollashtirish, madaniy va ilmiy aloqalarni rivojlantirish, hamda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish bilan ham uzviy bog’liqdir. Ayniqsa, tibbiyot yo‘nalishi talabalariga klinik terminlarni o‘rgatishda o‘quv resurslaridan foydalanish bu jarayonning samaradorligini bosqichma-bosqich oshirib bormoqda. Amaliy tajribada esa aynan og’zaki va yozma shakllarda – ko‘pincha til vositalarini bilish bilan ularni yaxlit, mantiqan izchil ifodalash o‘rtasidagi tafovutni yaqqol namoyon etadi. Bu tafovut, ayniqsa, shunday vaziyatlarda kuchli seziladi: nutqni qurishda bir vaqtning o‘zida adresatni hisobga olish, muloqot maqsadini aniqlash, akademik diskurs me’yorlariga rioya qilish va ijtimoiy-madaniy kutishlarga moslashish talab etilganda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda talabalarning lotin tilida muloqot qilish kompetentsiyalarini, jumladan, kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirish maqsadida darsda shaxsga yo‘naltirilgan metodlarni tatbiq etish, ta’lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish rivojlantirish bo‘yicha bir qancha me’yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan. “Xalqaro ta’lim standartlarini joriy etish va o‘qituvchilarda zamonaviy o‘qitish ko‘nikmalarini rivojlantirish”, “vebinar, onlayn, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish”[1] ustuvor vazifa etib belgilandi. Metodik jihatdan puxta loyihalangan holda klinik terminlarni qo‘llash amaliyotini kengaytirish, mustaqil produktiv nutq ulushini oshirish, tezkor qayta aloqa ta’minlash hamda bog’lanishli nutqni rivojlantirishning individual trayektoriyasini shakllantirish imkonini beradi.

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son Farmoni. - https://lex.uz/docs/4545884

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g’risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi 2022–2026-yillar to‘g’risida”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son Farmoni “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g’risida”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5117-son qarori “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g’risida”, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi 312-son qarori “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g’risida”, 2022 -yil 19-yanvardagi 34-son qarori “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g’risida” hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish agentligining 2021-yil 7-sentabrdagi qarori “Xorijiy tillarni bilish darajasini belgilovchi xalqaro tan olingan sertifikatlarni tasdiqlash to‘g’risida” va mazkur sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlar.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamiz olimlaridan L.U. Xo‘jayeva[2] lotin tilini o‘rgatish metodikasini tadqiq qilgan bo‘lsa, H.B. Valiyeva tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida lotin tilini o‘rganish masalalari, L.P. Anikina tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida lotin tilini o‘qitish metodikasi, T.K. Belova farmatsevtika universitetida lotin tilini o‘qitish xususiyatlari, M.H. Mahkamov, M.S. Muxamedova, D.A. Olimboyevalar esa tibbiyot institutlarida lotin tilini o‘qitishning didaktik tamoyillarini o‘rgangan, Sh. Eshmurodova lotin tilini o‘qitishda zamonaviy va interaktiv metodlarning qo‘llanilishi bo‘yicha tadqiqot olib borgan.

I.X. Berdieva, D. Tojiboeva, A.E. Begbo‘taev, Sh.A. Alishev, G‘.S. Bozorov, A.K. Murzaeva, N.N. Yusupova, Sh. Qodirovalar integrativ yondashuv asosida tibbiyot yo‘nalishi talabalariga klinik terminlarni o‘rgatishning mazmun-mohiyati va oliy ta’limda qo‘llanishi xususida tadqiqotlar olib borgan[3]. Ularning ilmiy ishlarida lotin tilini o‘qitishning nazariy-metodik jihatlari, oliy ta’limdagi tashkiliy holati, an’anaviy va zamonaviy o‘qitish metodlari, shuningdek, Flipped classroom modelining afzalliklari, amalga oshirish bosqichlari va talaba mustaqilligini rivojlantirish hamda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish bilan bog’liq jihatlar ilmiy asoslab berilgan.

[2] Xo‘jayeva L.U. Lotin tili. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. – 152 b.
[3] Berdieva I.X., Tojiboeva D., Begbo‘tayev A.E., Alishev Sh.A., Bozorov G‘.S., Murzayeva A.K., Yusupova N.N., Qodirova Sh. — Integrativ yondashuv asosida tibbiyot yo‘nalishi talabalariga klinik terminlarni o‘rgatishga oid ilmiy tadqiqotlar

MDH olimlari qatorida E.N. Solovova, R.P. Milrud, N.D. Galskova, V.M. Filatov, E.I. Passov, T.P. Popova, Y.S. Kazakova, I.I. Gnutova, V.A. Fandey, O.D. Fedotova, E.A. Nikolaeva, M.N. Dudina, N.V. Kaygorodseva, E.Y. Shkuro, A.E. Vorobevlarning tadqiqotlarida lotin tilini o‘qitish metodikasi, kommunikativ kasbiy kompetensiyani rivojlantirish, integrativ yondashuv asosida tibbiyot yo‘nalishi talabalariga klinik terminlarni o‘rgatishning ta’lim tizimidagi o‘rni, uni tashkil etish bosqichlari va didaktik tamoyillari yoritilgan[4].

Xorijiy olimlardan S. Adema, H. Henning, W.H.D. Rouse, R. J. Getty, M. Minkova, T. Tunberg, Ch. Francese, A. M. Riggsbylarning tadqiqotlarida lotin tilini faol nutq va bevosita metod orqali o‘rgatish hamda lotin tilini o‘rganish jarayonini ikkinchi tilni o‘zlashtirish nazariyalari bilan bog’lash masalalari tadqiq qilingan[5].

Tadqiqotimizda mazkur yo’nalishda bajarilgan ishlardan farqli ravishda Oliy o‘quv yurtlarida lotin tilini o‘qitishni takomillashtirish yuzasidan ko‘plab ilmiy ishlar qilingan bo‘lsa-da, lekin integrativ yondashuv asosida tibbiyot yo‘nalishi talabalariga klinik terminlarni o‘rgatish masalalari yuzasidan maxsus tadqiqot ishi amalga oshirilmagan.

Dissertasiya tadqiqotining oliy ta’lim muassasasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Chet tilini o‘rganishda ta’lim resurslaridan samarali foydalanish (2022-2026-y.y.)” mavzusidagi ilmiy tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi integrativ yondashuv asosida tibbiyot yo‘nalishi talabalariga klinik terminlarni o‘rgatish metodikasini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

integrativ yondashuv asosida tibbiyot yo‘nalishi talabalariga klinik terminlarni o‘rgatishga doir yondashuvlarning nazariy asoslarini xorijiy va mahalliy tadqiqotlarga tayangan holda asoslash;

integrativ yondashuv asosida tibbiyot yo‘nalishi talabalariga klinik terminlarni o‘rgatishda kognitiv va refleksiv mohiyatini aniqlash hamda tizimlashtirish;

tibbiyot yo‘nalishi talabalariga klinik terminlarni o‘rgatishga yo‘naltirilgan metodlar integratsiyasining pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish;

tibbiyot yo‘nalishi talabalariga klinik terminlarni o‘rgatishga xizmat qiluvchi Flipped classroom modeli asosidagi topshiriqlarni ishlab chiqish va va amaliyotga joriy etish.

Tadqiqot obyekti sifatida integrativ yondashuv asosida tibbiyot yo‘nalishi talabalariga klinik terminlarni o‘rgatish metodikasini takomillashtirish jarayonidan

---

[4] Соловова Е.Н. Методика обучения иностранным языкам: базовый курс лекций. – М.: Просвещение, 2002. – 239 с.; Мильруд Р.П. Методика преподавания английского языка. – М.: Дрофа, 2007. – 253 с.; Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам: лингводидактика и методика. – М.: Академия, 2006. – 336 с.; Филатов В.М. Методика обучения иностранным языкам: учебное пособие. – Ростов н/Д: Феникс, 2004. – 416 с.; Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – М.: Просвещение, 1991. – 223 с.

[5] Adema S. Latin learning and instruction as a research field // *Journal of Latin Linguistics*. – 2019. – Vol. 18, № 1–2. – P. 35–59.; Ørberg H.H. *Lingua Latina per se Illustrata: Familia Romana. Pars I*. – 2nd revised ed. – Newburyport: Focus Publishing, 2011. – 328 p.; Rouse W.H.D., Appleton R.B. *Latin on the Direct Method*. – London: University of London Press, 1925. – 226 p.

iborat. Tadqiqot respondentlari sifatida Toshkent davlat tibbiyot universiteti Buxoro davlat tibbiyot instituti va Termiz davlat tibbiyot instituti talabalari ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmeti integrativ yondashuv asosida tibbiyot yo‘nalishi talabalariga klinik terminlarni o‘rgatish metodikasini takomillashtirish prinsiplari, metodlari, texnologiyalari va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda nazariy (tahliliy-sintetik, chog‘ishtirma tahlil), empirik (pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov), sosiometrik (test, so‘rovlar o‘tkazish, suhbat), matematik statistik tahlil (ma’lumotlarga statistik ishlov berish, natijalarni grafik tasvirlash tizimli tahlil, umumlashtirish, baholash) metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tibbiyot yo‘nalishi talabalariga klinik terminlarni o‘rgatish mazmuni til jihatlari va ijtimoiy-madaniy komponentlarni ta’lim jarayonida integratsiyalashga asoslangan integrativ yondashuvlari nazariy jihatdan asoslangan;

tibbiyot yo‘nalishi talabalariga klinik terminlarni o‘rgatishning tarkibiy komponenti kognitiv va refleksiv faoliyatning barcha turlarini rivojlantirishga qaratilgan variativ innovatsion texnologiyalar (raqamli va interaktiv) majmuasi tizimlashtirilib, WebQuest, keys-topshiriqlar va interaktiv ta’limning variativ hamda differensial vositalari aniqlangan;

integrativ yondashuv asosida tibbiyot yo‘nalishi talabalariga klinik terminlarni o‘rgatishning pedagogik shart-sharoitlari individual va guruhli ishlar muvozanatini ta’minlash, til mashqlaridan bosqichma bosqich foydalanish hamda mazkur jarayonlarni Flipped classroom modeli asosida tashkil etish orqali takomillashtirilgan;

tibbiyot yo‘nalishi talabalariga klinik terminlarni o‘rgatishga xizmat qiluvchi loyiha, raqamli va interaktiv innovatsion texnologiyalarni joriy etish, o‘quv elementlarini o‘zaro muvofiqlashtirish natijalarini diagnostika qilishga yo‘naltirilgan algoritmik vositalar majmuasi ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

integrativ yondashuv asosida tibbiyot yo‘nalishi talabalariga klinik terminlarni o‘rgatish Flipped classroom modeli asosida tashkil etilgan lotin tili darslarida talabalarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalari sezilarli darajada o‘sgani aniqlangan;

integrativ yondashuv asosida tibbiyot yo‘nalishi talabalariga klinik terminlarni o‘rgatishning pedagogik shart-sharoitlari batafsil yoritib berilgan;

integrativ yondashuv asosida tibbiyot yo‘nalishi talabalariga klinik terminlarni o‘rgatishning Flipped classroom modeli ishlab chiqildi, tajriba-sinovdan o‘tkazildi hamda uning samarali faoliyat yuritishini ta’minlovchi pedagogik shart-sharoitlar belgilangan;

tibbiyot yo‘nalishdagi oliy talim muassasa (OTM)larda lotin tili mashg‘ulotlarida yozuv kompetentsiyasini takomillashtirish maqsadida qo‘llaniladigan mobil dasturlar va ularni qo‘llash bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar ishlab chiqilgan;

talabalar va professor-o‘qituvchilar uchun metodik ko‘rsatmalar bilan ta’minlangan “Lingvoo‘zini o‘zi rivojlantirish faoliyati” bo‘yicha o‘quv kursi yaratildi va ta’lim jarayoniga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotning nazariy yondashuvlari va usullari rasmiy manbalardan olinganligi; ishlab chiqilgan o‘qitish metodikasining samaradorligi matematik-statistik tahlil usullari yordamida tekshirilganligi; xulosa va tavsiyalarning ta’lim jarayoniga joriy etilganligi; olingan natijalarning vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati integrativ yondashuv asosida tibbiyot yo‘nalishi talabalariga klinik terminlarni o‘rgatish metodikasini takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni amalga oshirish modeli va algoritmini ishlab chiqish hamda til ko‘nikmalarining parcha-parcha shaklidan yaxlit talablarga mos fikr bayoniga o‘tishni ta’minlaydigan pedagogik shart-sharoitlarni asoslash bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan mazmun, model, algoritm, diagnostik vositalar majmuasi va o‘quv-metodik materiallardan tubbiyot oliy muassasalari o‘quv jarayonida lotin tilini o‘qitishda, shuningdek talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish va ularning o‘zini o‘zi rivojlantirish faoliyatini qo‘llab-quvvatlashda foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Integrativ yondashuv asosida tibbiyot yo‘nalishi talabalariga klinik terminlarni o‘rgatish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan nazariy, uslubiy va amaliy natijalar asosida:

tibbiyot yo‘nalishi talabalariga klinik terminlarni o‘rgatish mazmuni til jihatlari va ijtimoiy-madaniy komponentlarni ta’lim jarayonida integratsiyalashga asoslangan integrativ yondashuvlariga oid tavsiyalardan tibbiyot oliy ta’lim muassasalarining “Davolash ishi” yo‘nalishi talabalari uchun yaratilgan “*Латинский язык и основы медицинской терминологии*” nomli o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat tibbiyot universiteti rektorining 2026-yil 3-iyundagi 2253-sonli buyrug’iga asosan 856585-son ma’lumotnomasi). Natijada, integrativ yondashuv asosida tibbiyot yo‘nalishi talabalariga klinik terminlarni o‘rgatish samaradorligi ta’minlanib, ta’lim oluvchilarning kommunikativ vaziyatlarga mos ravishda o‘quv ko‘nikmalari rivojlantirildi.

tibbiyot yo‘nalishi talabalariga klinik terminlarni o‘rgatishning tarkibiy komponenti kognitiv va refleksiv faoliyatning barcha turlarini rivojlantirishga qaratilgan variativ innovatsion texnologiyalar (raqamli va interaktiv) majmuasi tizimlashtirilib, WebQuest, keys-topshiriqlar va interaktiv ta’limning variativ hamda differensial vositalar bo‘yicha berilgan taklif va tavsiyalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2020-2023-yillarda amalga oshirilgan AM-FZ-201908172 –“O‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish” grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2026- yil 26 -maydagi 04/1-2680-son ma’lumotnomasi). Natijada, refleksiv mashq turlariga oid tavsiyalar asosida lotin

tili o‘rganuvchilarida o‘z-o‘zini baholash qobiliyati rivojlantirildi hamda ushbu mashq turlarining o‘rni va ahamiyati borasidagi tasavvurlar kengaytirilgan.

integrativ yondashuv asosida tibbiyot yo‘nalishi talabalariga klinik terminlarni o‘rgatishning pedagogik shart-sharoitlari individual va guruhli ishlar muvozanatini ta’minlash, til mashqlaridan bosqichma bosqich foydalanish hamda mazkur jarayonlarni Flipped classroom modeli asosida tashkil etishga oid tavsiyalardan O’zbekiston Milliy universitetida 2022-2024-yillar davomida bajarilgan REP-25112021/113 – sonli “UzUDT: O’zbek tilida tabiiy tilni qayta ishlash uchun universal bog’liqlik daraxti korpusi va uning semantik tahlili” mavzusidagi xalqaro ilmiy loyiha doirasida belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan. Natijada, “tibbiyot yo‘nalishi talabalarining lotin tilini o‘rganishidagi mavjud muammoli holatlarni bartaraf qilish bo‘yicha ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar mazmun-mohiyati o‘qitishning samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan, 4 ta respublika va xalqaro jurnalida nashr qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestasiya Komissiyasi tomonidan doktorlik dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta (4 ta respublika hamda 4 ta xorijiy jurnallarda) maqola, 1 ta o‘quv qo‘llanma 1 ta elektron darslik nashr qilingan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan tashkil topgan. Dissertasiyaning asosiy matni 139 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, ilmiy va amaliy ahamiyati belgilangan. Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, natijalari, e’lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Integrativ yondashuv asosida tibbiyot yo‘nalishi talabalariga klinik terminlarni o‘rgatishning nazariy asoslari**” deb nomlanadi. Unda integrativ yondashuv asosida tibbiyot yo‘nalishi talabalariga klinik terminlarni o‘rgatish metodik muammo sifatida, integrativ yondashuv asosida tibbiyot yo‘nalishi talabalariga klinik terminlarni o‘rgatishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, integrativ yondashuv asosida tibbiyot yo‘nalishi talabalariga klinik terminlarni o‘rgatishning mavjud holati xususida fikr bayon etilgan. Dissertatsiyada integratsiya quyidagi maqsadli vazifalar yotadigan yo‘nalishlarga ajratildi: ko‘p predmetlilikni bartaraf qilish, mavzuning (bo‘limni, butun kursni) o‘rganish vaqtini qisqartirish, takrorlanishlarni

bartaraf qilish; ta’lim texnologiyasini o‘zgartirish, ta’lim oluvchi shaxsining rivojlanishi uchun nisbatan maqbul sharoit yaratish, ta’lim oluvchilar va pedagoglarning rivojlanishini tezlashtirishni rag’batlash.

Integratsiya asosidagi o‘quv faoliyat va pedagogik jarayon ta’lim oluvchilar va pedagoglarda yuzaga keladigan real ehtiyojlarni aks ettiradi. Bu ehtiyojlar, o‘z navbatida, pedagogik jarayon qatnashchilari tomonidan o‘quv materialini o‘zlashtirish va bilim berish davomida aniqlangan qarama-qarshiliklardan kelib chiqadi.

Pedagogikada o‘qitish modellari umumiy xususiyatlardan kelib chiqib, an’anaviy va innovatsion turlarga bo‘lib o‘rganiladi. Ularni farqlashda, asosan, ta’lim maqsadi, jarayonda talabava talabaning (talabaning) vazifalari, ma’lumot berish usullaridagi tafovudlar hisobga olingan. D.A. Xidoyatova ta’lim berish modellarini ekstrafaol ta’lim, faol ta’lim, introfaol ta’lim hamda interfaol ta’lim modellariga ajratgan holda tariflaydi[6]. Bulardan ekstrafaol ta’lim modeli an’anaviy xarakterga, qolgan turlari innovatsion xarakterga egadir.

Eggen, Kauchar va Harder (1979) tomonidan o‘qitish modellarining oltita oilasi muhokama qilingan bo‘lib, ular Axborotni qayta ishlash modellariga kiradi. Mazkur modellarga umumiy induktiv model, tushunchani egallash modeli (Concept Attainment Model), Taba modeli, umumiy deduktiv model, Ausubel modeli hamda Suchmanning izlanish (Inquiry) modeli kiradi.

O‘qitish modellariga oid eng keng qamrovli sharh Joyce va Weil (1980) tomonidan berilgan bo‘lib, ular 23 ta o‘qitish modelini aniqlagan va ularni modellarining tabiati, o‘ziga xos xususiyatlari hamda ta’sir doirasiga ko‘ra to‘rtta asosiy oilaga ajratgan.

Bugungi kunda “Flipped classroom” “Blended learning” (Aralash ta’lim) terminlarining sinonim tarzda qo‘llanilish holatlari mavjud. Biroq, ular ham mohiyatan, ham tashkil etilish jihatidan ham turlichadir. Bir guruh olimlar Aralash ta’limda an’anaviy darslarda AKT vositalaridan (video, mp3, onlayn resurslar) qo‘shimcha foydalaniladi. Ta’lim o‘qituvchiga yo‘naltirilgan shaklda tashkil etiladi. Bundan farqli tarzda, “Flipped classroom” modelining asosiy maqsadi talabaga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etishdir. Odatda, video lavhalar, o‘qish, tinglash uchun autentik o‘quv materiallari darsgacha mustaqil o‘zlashtirish uchun beriladi. Darsda esa ular yuzasidan amaliy topshriqlar bajariladi. J.F. Strayer esa “Flipped classroom” modelini “Aralash ta’lim” ning bir shakli, deya ta’riflaydi[7]. Shu o‘rinda “Flipped classroom” modelining boshqa shakllardan farqini ko‘rsatish maqsadida, H. Staker, M.B. Horn tomonidan tavsiya qilingan “Aralash ta’lim”ning 6 ta keng qo‘llaniluvchi modellariga qisqacha to‘xtalishni lozim topdik[8] (1.1.1-jadvalga qarang).

[6] XidoyatovaD.A. Interfaolta'lim. – T.: «Abumatbuot- konsalt», 2016. -15-b

[7]Strayer, J. F. (2012). How learning in an inverted classroom influences cooperation, innovation and task orientation. Learning Environments Research, 15(2), 171–193.

[8]Staker H., Horn M.B. Classifying K-12 Blended Learning. Available at: http://www. christenseninstitute.org/wp-content/uploads/2013/ 04/Classifying-K-12-blended-learning.pdf (accessed 17.03.2016)


1-jadval

“Aralash ta’lim” (Blended learning) turlari

“Aylanma” model	O‘quv jarayoni individual elektron ta’lim, talababilan birgalikda sinfda tashkil etilgan ta’lim jarayonlarini hamda guruhli topshiriqlarni o‘z ichiga oladi. Bunda nazariy materiallar individual tarzda masofadan turib o‘qiladi va auditoriyada talabahamkorligida o‘zaro muhokama, munozara va muzokaralar asosida olingan bilimlar mustahkamlanadi.
(“Rotation” model)	O‘quv dasturining katta qismi elektron ta’lim orqali o‘zlashtiriladi. Talabahar bir ta’lim oluvchining o‘zlashtirish holatini masofadan kuzatib boradi. Mavzu yuzasidan muhokamalar kichik guruhlarda onlayn tarzda va zaruriy hollarda oflayn tarzda tashkil etiladi.
“Moslashuvchan” model	Talabalar mustaqil tarzda asosiy ta’limdan tashqari qo‘shimcha kurslarni tanlab o‘qiydi.
(“Flex” model)	O‘quv dasturining asosiy qismi elektron resurslar yordamida olib boriladi. Qo‘shimcha yordam uchun professorlar tomonidan yuzma-yuz uchrashuvlar tashkillashtiriladi.

Demak, jadvaldan ko‘rinadiki, “Aralash ta’lim” modellari bir-biridan onlayn (sinfdan tashqari) va oflayn darslarning tashkil etilishiga hamda shunga muvofiq ulardagi professor talabava talabalarning ishtirokiga, maqsad qilingan vazifalariga ko‘ra farq qiladi.

2012-yilda tuzilgan “Flipped Learning Network” (FLN) onlayn hamjamiyati turli davlatlardagi talabapedagoglarga mazkur modelni qo‘llash borasida o‘zaro tajriba almashish imkonini beradi. Mazkur model bo‘yicha shifokorlar dars tashkillashtirish jarayonida quyidagi to‘rtta elementni e’tiborga olishlarini tavsiya etilgan. Ushbu elementlarni lotincha “FLIP” so‘zining har bir harfi orqali ifodalashgan[9] (1-rasmga qarang):



1-rasm. “Flipped classroom” modelining ustunlari

F- “flexible environment”, ya’ni “moslashuvchan muhit”- J. Bergman va A. Sams va K. Fulton bergan ta’rifiga ko‘ra, bu model talabaga individual o‘rganish usullari, o‘rganish joyi, vaqti, baholanish usullari, materialni o‘qish vaqti va tempi (tezligini)[10] boshqarish imkoniyatini beradi (2-rasmga qarang)[11].

[9]Hamdan, N., McKnight, P., McKnight, K., & Arfstrom, K. M. (2013). A Review of Flipped Learning. http://www.flippedlearning.org/review

[10] Bergmann, J., & Sams, A. (2012). Flip your classroom: Reach every student in every class every day. Washington: ISTE.

[11]Fulton, K. (2012). Upside down and inside out : Flip your classroom to improve student learning. *Learning &Leading with Technology*, *39*(8), 12–17

2-jadval

“Flipped classroom” modelidagi moslashuvchan elementlar

Ma’lumot formati	Talaba nazariy ma’lumotlarni turli formatli (pdf, audio, video, ppt taqdimot, rasm, chizma) materillar orqali berishi mumkin.
Ma’lumot yuborish vositalari	Talaba o‘quv materiallarini Onlayn ijtimoiy tarmoqlar (telegram, feycbuk, ta’limni boshqarish tizimlari (ing. LMS) orqali yuborish mumkin.
Ma’lumot bilan tanishish vaqti	Talabalar yuborilgan ma’lumot bilan istalgan vaqt tanishishi mumkin. Bunda faqat chegaralangan vaqtni (deadline) hisobga olish lozim.
Ma’lumot bilan tanishish tempi	Talaba ma’lumotni o‘ziga qulay tezlikda o‘qishi, eshitishi, ko‘rishi mumkin. O‘quv materialining istalgan joyida to‘xtab takroran o‘rganishi mumkin.
Ma’lumot bilan tanishish joyi	Talaba o‘ziga qulay joyda (uyda, kutubxonada, o‘quv zallarida, bukkafe) yuborilgan o‘quv materialini o‘rganishi mumkin.
Topshirqlardagi ishtirok shakllari	Talaba sinfda turli yakka, juft va guruhli amaliy topshiriqlarni tashkillashtish mumkin.

*L- “learningculture”,*ya’ni ta’lim olish usulining o‘zgarishi. J. Strayer ta’rifiga ko‘ra, bu modelining bu xususiyati ta’limning “o‘qituvchiga yo‘naltirilgan” (teacher-centered) shaklidan “talabaga yo‘naltirilgan” (student-centered) ko‘rinishiga o‘zgarishi bilan izohlanadi[12].A.Basal va T. Aytan aytganidek, an’anaviy ta’lim shaklida asosiy bilim manbai talabahisoblansa, ushbu modelda bilim oluvchilar mustaqil ta’lim oluvchi sifatida faol ishtirokchiga aylanadilar[13]. J.F. Strayer talabalarning bilim olishga bo‘lgan munosabatlarida sezilarli o‘zgarishlar bo‘lishini quyidagicha izohlaydi: “…talabalar bir-birlaridan o‘rganadilar, o‘zaro fikr almashadilar, o‘zlarining va guruhdoshlarining bajargan topshiriqlarini baholaydilar (self-evaluation, peer-evaluation)”[14]. P. Anastasiades ta’kidlaganidek, talaba“ma’lumot manbai” emas, boshqaruvchi va yo‘naltiruvchiga aylanadi, shuningdek “chegaralangan vaqtdagi o‘quv mashg’ulotlari” tushunchasi “umrbo‘yi davomli tarzda amalga oshiriluvchi mashg’ulotlar” tushunchasi bilan almashadi[15]. Demak, talabalarning o‘qishga bo‘lgan munosabatida mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarining sezilarni rivojlanishi kuzatiladi.

I- “Intentional Content” (mo‘ljallangan dasturiy tarkib). B. Taker fikriga ko‘ra, mazkur modelda o‘quv-qo‘llanma va darsliklar bilan birgalikda video va audio ma’lumotlar, internet manbalarifdan foydalanilish talabalarning ham qiziqishi, ham

[12] Strayer, J. (2007). The effects of the classroom flip on the learning environment: A comparison of learning activity in a traditional classroom and a flip classroom that used an intelligent tutoring system. (Doctoral dissertation). Retrieved from https://etd.ohiolink.edu/

[13] Basal, A.,& Aytan T. (2014). Using Web 2.0 Tools in English Language Teaching. International Conference ICT for Language Learning. 7th Edition Pixel.

[14]Strayer, J. F. (2012). How learning in an inverted classroom influences cooperation, innovation and task orientation. *Learning Environments Research*, *15*(2), 171–193.

[15]Anastasiades, P. & Zaranis, N. (2017). Research on e-Learning and ICT in Education. Cham: Springer

mavzuni keng qamrovda tushunishiga yordam beradi[16]. Shuningdek, mazku modelda qo‘llaniladigan onlayn o‘quv materillari talabalarning mustaqil tushuna olishlari uchun qulay bo‘lishi lozim (S. Lai, Y. Zhao va J. Vang[17]; M. M. Abbad, D. Morris va S. Nahlik[18]).

P- "Professional educator"(professional o‘qituvchi). E. Mazur "Flipped classroom" modelida shifokorlar egallashi zarur bo‘lgan quyidagi qobiliyatni ta’kidlab o‘tadi- talabalarni ruhlantira olish, yangi texnologiyalarni qo‘llashda tavakkal qilishdan qo‘rqmaslik, onlayn dars o‘tish qobiliyatiga ega bo‘lishi, bilim darajasi, qiziqishlari, o‘rganish usullari turlicha bo‘lgan talabalar bilan ishlay olish, umumiy vaziyatni obektiv ko‘ra olish qobiliyati bo‘lishi kerak[19].

Flipped classroom ta’lim shakli o‘z navbatida, shu vaqtgacha an’anaviy shaklda ta’lim olib kelayotgan talabalar ongida quyidagi bir qancha ijobiy ijtimoiy-ruhiy o‘zgarishlar bo‘lishiga olib keladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Integrativ yondashuv asosida tibbiyot yo‘nalishi talabalariga klinik terminlarni o‘rgatishning metodik ta’minoti"** deb nomlanadi. Bunda integrativ yondashuv asosida tibbiyot yo‘nalishi talabalariga klinik terminlarni o‘rgatishning mazmuni, shakli, metod va vositalari, integrativ yondashuv asosida tibbiyot yo‘nalishi talabalariga klinik terminlarni o‘rgatishning metodik tizimi, integrativ yondashuv asosida tibbiyot yo‘nalishi talabalariga klinik terminlarni o‘rgatish texnologiyalari haqidagi masalalar xususidagi fikrlar bayon etilgan.

Ko‘nikmalarni egallash nazariyasi (Skill Acquisition Theory). R.M. DeKeyzer ta’rifiga ko‘ra, mazkur nazariya insonlarning kognitiv va psixomotorik bilimlarni egallash jarayonini izohlaydi. Uning ta’kidlashicha, katta yoshlilar yangi ko‘nikmani avval har tomonlama aniq tushunish orqali qabul qiladi, so‘ng tor doirada uni qo‘llash orqali tajriba hosil qilishadi. Shunga ko‘ra u ikki bosqichga bo‘linadi. Birinchi bosqichda (declarative knowledge) til materiallari hisoblangan grammatik va leksik bilimlar o‘rganilinsa, ikkinchi (procedural knowledge) bosqichda o‘rganilgan materiallar o‘zaro bog’lanib muayyam mazmunni ifodalash uchun ishlatiladi. Flipped classroom modelida birinchi bosqichdagi bilimlar video va audio materiallari yordamida o‘rganiladi, so‘ng dars mobaynidagi bu bilimlar faol tarzda kasbiy kommunikativligini kompetentsiyasi va malakasiga aylantiriladi[20].

Dars jarayonining mantiqli "darsoldi", "dars mobaynida" qismlariga bo‘linishini Bloom taksonomiyasiga ko‘ra ifodalash mumkin. (2.1.1- rasmga qarang).

---

[16]Tucker, B. (2012). The flipped classroom. *Education Next, 12*(1), 82-83.

[17] Lai, C., Zhao, Y. and Wang, J. (2011) TaskBased Language Teaching in Online Ab Initio Foreign Language Classrooms. The Modern Language Journal. 95(Supplement 1). pp. 81-103

[18] Abbad, M.M., Morris, D. and de Nahlik, C. (2009) Looking under the Bonnet: Factors Affecting Student Adoption of E-Learning Systems in Jordan. The International Review of Research in Open and Distance Learning, 10, No. 2. https://doi.org/10.19173/irrodl.v10i2.596

[19]Erik M. (2013). 'Flipped learning will redefine the role of educators'. Harvard University. https://evolllution.com/revenue-streams/distance_online_learning/audio-flipped-classroom-redefine-role-educators-10-years/


[20]DeKeyser, R. M. (2015). Skill Acquisition Theory. In B. VanPatten and J. Williams (Eds.), Theories in Second Language Acquisition: An Introduction (pp. 94-113). New York: Routeledge.

Darsoldi maqsadlar: (quyi intellekt darajali, C. Breym, J. Koch [21] [22].)

- Mavzuning umumiy mohiyatini tushunish- umumlashtirish, namoyish qilish, tushuntirish;
- Mavzuga oid yangi so‘z va atamalarni eslab qolish- yod olish, takrorlash, ta’riflash, eslay olish.
- Olingan bilimni qiyinlik darajasi past bo‘lgan sodda topshiriq bajarish uchun qo‘llash.

Yuzma-yuz dars maqsadlari: (yuqori intellekt darajali, J. Bergman va A. Sams[23])

- Darsgacha olingan bilimlarni amaliy ko‘rsatish- kasbiy kommunikativligi nisavol-javoblar o‘tkazish, kichik guruhli presentatsiyalar qilish, bilimni tekshiruvchi testlar yechish;
- Tahlil qilish- solishtirish, qiyoslash, bog’liqliklar ustida ishlash.
- Taqdimotlarni solishtirish, test yoki o‘tkazilgan kichik mashg’ulot yuzasidan guruhli muhokamalar, munozaralar uyushtirish;
- Baholash- xatolar ustida ishlash, mulohazalar berish.
- Yaratish- individual yoki guruhli loyiha taqdim etish. [24]




2-rasm. An’anaviy dars bilan Flipped classroom modelining “Blum taksonomiyasi” asosida solishtirilgan ko‘rinishi

“Proksimal rivojlanish zonasi” nazariyasi L. S. Vigotskiy ta’rifiga ko‘ra, bilim oluvchilarning mustaqil va yordam bilan bajara oladigan qobiliyatlarining o‘rtasidagi tafovutni nazarda tutadi[25].“Proksimal” tushunchasi o‘zlashtirilish arafasida turgan bilim va ko‘nikmalarni anglatadi. Ushbu nazariyaga muvofiq, chet

[21] Brame, C., (2013). Flipping the classroom. Vanderbilt University Center for Teaching. Retrieved from http://cft.vanderbilt.edu/guides-sub-pages/flipping-theclassroom/.
[22] Koch, J. (2016). Teach3: Introduction to education. Boston, MA: Cengage Learning.
[23] Bergmann, J., & Sams, A. (2012). Flip your classroom: Reach every student in every class every day. International society for technology in education.
[24] Bloom, B. S., Engelhart, M. D., Furst, E. J., Hill, W. H. and Krathwohl, D. R., 1956, Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals, Handbook I: Cognitive Domain, London: Longmans.
[25]Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.

tilini o‘rgatishda talabalarning mustaqil o‘rgana oladigan bilimlari va ko‘mak bilan o‘rganadigan bilimlarini aniqlash muhim ahamiyatga egadir. Talabalarda maktab talabalaridan farqli ravishda, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmasi bir qadar yaxshi shakllangan bo‘ladi. Lotin tili darslarini tashkil qilishda mana shu omildan to‘g’ri foydalanilsa, bu avvalo, vaqtni tejashga va albatta, o‘qituvchiga dars davomida har bir talaba bilan ishlay olish imkonini beradi.

Hamkorlikdagi faoliyat usuli deganda, talababilan talabaning birgalikdagi hatti-harakatlarining tizimini tushunish kerak. Talabalarning faolligi asta-sekin o‘sib borib, mustaqil o‘rganuvchiga aylanishadi; talababilan talaba o‘rtasidagi munosbat ham sheriklik pozitsiyasiga o‘zgaradi. “Flipped classroom” modelida talabava talabalar o‘rtasidagi muloqot quyidagi sxemada tasvirlangan (2.1.2-rasmga qarang):



3-rasm. “Flipped classroom” modelida o‘qituvchi-talaba, talaba-talaba muloqoti sxemasi

Faol o‘rganish nazariyasi (Active learning theory). V.A. Chikering va F.Z. Gampson talabalar ko‘proq bilimga ega bo‘lishlari uchun o‘rganish jarayonida faol ishtirok etishi kerak, deya ta’kidlaydi[26]. Mazkur nazariya faol o‘rganish jarayoni “o‘rganuvchi tomoshabin emas” g’oyasi asosida shakllangan. Bu jarayonda “tinglash” va “eslab qolish” dan ko‘ra, “bajarish, muhokama qilish, mulohaza qilish” ga e’tibor ko‘proq qaratiladi.

Tuslanish	Qo‘shimcha *Genetīvus sing.*	Masalan
I	-ae	Femīna, ae f – ayol.
II	-i	musculus, i *m* – mushak ligamentum, I n – bog’lam
III	-is	dens, dentis *m* – tish pars, partis f – qism corpus, corporis n - badan
IV	-us	arcus, us *m* – yoy genu, us n – tizza bo‘g’imi
V	-ēi	caries, ēi *f* – kariyes

[26] Chickering, W. A., & Gamson F. Z. (1987). Seven principlesfor good practice in undergraduate education.

Lotin tili darslarida kasbiy kommunikativligini kompetentsiyasini rivojlantirishga mo‘ljallangan mashg’ulotlarni samarali o‘tkazish uchun muhim bo‘lgan omillardan yana biri darsda vaqtdan unumli foydalanishdir. An’anaviy darslarda farqli ravishda, Flipped classroom modelida darsgacha qilingan tayyorgarlik, yuzma-yuz darslarda kasbiy kommunikativligini

Katenburi universiteti professori Jozelin Hovard (Jocelyn Howard) va Viktoriya universiteti professori Jaye Major lotin tilini o‘rgatishga mo‘ljallangan o‘quv materiallarini ishlab chiqish uchun tavsiya qilgan omillarga asoslangan holda Flipped classroom” modelida kasbiy kommunikativligini kompetentsiyasini takomillashtirishda qo‘llaniluvchi dars kotentini tanlash va yaratishning quyidagi tamoyillarini keltirdik:

